

TRANSPORT GEOGRAFIYASI

*Omonullayev Og'abek
Abdihakurova Malika
Qarshi Davlat Universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada transport geografiyasi transport turlari shuningdek uning muommo va yechimlari va ijtimoiy hayotimizda transportni qo'shayotgan hissasini qisman bayon etilgan

Kalit so'zlar: Quvur transporti , Suv transporti , Transport tuguni , Buyuk Ipak yoli , havo transporti , Transport markazlari.

Аннотация: В данной статье частично описаны география транспорта, виды транспорта, его проблемы и решения, а также вклад транспорта в нашу общественную жизнь.

Ключевые слова: Трубопроводный транспорт, Водный транспорт, Транспортный узел, Великий Шелковый путь, Воздушный транспорт, Транспортные центры.

Abstract: In this article, the geography of transport, the types of transport, its problems and solutions, and the contribution of transport in our social life are partially described.

Key words: Pipeline transport, Water transport, Transport node, Great Silk Road, Air transport, Transport centers.

Transport yo'lovchilarni va yuklarni tashish bilan mamlakat bo'ylab ham, jahon bo'ylab ham geografik mehnat taqsimotining chuqurlashuviga imkon yaratadi. U mamlakatlararo iqtisodiy, madaniy aloqalarning yuksalishida muhim rol o'ynaydi. Yurtimiz jahon sivilizatsiyasining qadimiy davlatlaridan bo'lganini tarix darslaridan yaxshi bilamiz. Bunda o'sha vaqtda Yevropa bilan Osiyoni bog'lab turuvchi – Buyuk Ipak yo'li aynan bizning mamlakat hududidan otganligi alohida orin tutadi. O'zbekiston quruqlik (temiryo'l, avtomobil transporti), suv (daryo), havo, quvur (neft va tabiiy gaz tashish) va elektron (elektr uzatish liniyalari) transportiga ega. Yuk va yo'lovchi tashishda muayyan manzilga borgunicha transportning ikki, uch va, hatto, to'rt turidan foydalanishga to'g'ri keladi. Aytaylik, uzoq qishloqdan shahar, viloyat markaziga bormoqchi bo'lsak, uydan avtomobil bekatigacha ot-ulovda, so'ng temiryo'l vokzali yoki aeroportgacha avtomobilda va, nihoyat, poyezd yoki samolyotda ko'zlangan manzilga yetamiz. O'zbekistonda hozirgi zamon transportining (suv transportidan bo'lak) barcha turlaridan keng ko'lamda foydalanilmoqda.

Barcha transport turlari xizmat ko'rsatish jarayonining o'zaro aloqadorligi asosida transport majmuasini tashkil etadi. Har bir transport turiga mos yuk ortish-

tushirish maydoni, harakat yo'nalishi, vokzal, aerodrom, stansiya, bekat hamda aloqa vositalari bo'ladi. Temiryo'l, avtomobil yo'li qurishga ko'plab mablag' va vaqt kerak bo'ladi. Quvur transportiga esa minglab tonna quvur sarflanadi. Ammo suv, havo transporti yo'nalishi (trassa) ni oz mablag' evaziga yo'lga qo'yiladi.

Transport turlari ishchi kuchini band qilishi bo'yicha ham keskin farqlanadi. Yuk quvur, suv, temiryo'l transportlarida tashilganida sarf-xarajati avtomobil yoki havo transportida tashilgan yuk sarf-xarajatidan ancha kam bo'ladi. Neft yoki yog'och ortilgan ko'plab vagonlarni bitta lokomotiv tortib borayotganini kuzatgandirsiz? Yuzlab vagon tirkalgan o'sha poyezdni 2-3 kishigina boshqaradi. Holbuki, 125 tonna yuk ko'taradigan bitta eng katta avtomobilni ham shuncha kishi boshqaradi. Katta hajmli 100 minglab tonna yuklarni suv transporti (tanker)da tashilganda esa yo'l xarajati yana ham arzon tushadi.

Suv transporti boshqa transportlardan sekin harakatlansada, olis masofani to'xtovsiz bosib o'tadi. Shu sababli tezligi katta ammo, stansiyalarda to'xtab-to'xtab harakatlanadigan poyezd bilan raqobatlasha oladi. Yukni temiryo'l va suv transportida bevosita egasiga yetkazish imkoniyati ancha cheklangan. Avtomobilda esa istalgan joyga yetkazib bersa bo'ladi.

Transportning ishi uning yuk tashish hajmiga qarab belgilanadi. Yuk tashish hajmi ma'lum vaqtda ma'lum masofaga tashilgan yuk miqdoridir. U tonna, kilometrda ifodalanadi.

Transport moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi, u barcha tarmoqlarning rivojlanishida yetakchi asosiy o'rin tutadi. Transportning ahamiyatini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

- sanoat bilan qishloq xo'jalik orasidagi aloqalarda;
- qayta ishlovchi bilan undiruvchi sanoat orasidagi munosabatda;
- ishlab chiqarish bilan xom-ashyo orasidagi bog'lanishda;
- ishlab chiqarish bilan iste'molchi orasidagi aloqada;
- jahon mamlakatlari bilan turli regionlar orasidagi mahsulot va xom-ashyo almashinuvida;
- jahonda xalqaro tashqi savdo bilan ichki savdoni tashkil etishda;
- yangi hududlarni o'zlashtirishda;
- geografik mehnat taqsimotini shakllanishida.

Yangi hududlarni o'zlashtirishda, mineral resurslardan to'liq foydalanishda (ayniqsa, foydali qazilmalardan, o'rmon, yer resurslaridan) albatta transport yo'llari o'tkaziladi (Masalan, Transamazoniya, BAM-Baykal Amur Magistrali, Angren-Pop).

Transport xalq xo'jaligiga xizmat qilish bilan birga ko'p miqdorda elektr energiya, yoqilg'i, metall, yog'och, qurilish materiallari, sanoat mahsulotlari va malakali mehnat resurslarini talab etadi.

Barcha yo'llar (temir yo'l, avtomobil yo'l, suv, havo, quvur, elektron), transport korxonalari va transport vositalari birgalikda jahon transport tizimini tashkil etadi. Jahon transport tizimida taxminan 100 mln. dan ortiq kishi band va butun transport yo'llarining umumiy uzunligi taxminan 32 mln. km dan oshadi. Har yili jahon transportining barcha turlarida 100 mlrd.t.dan ortiq yuk va 1 trln.ga yaqin yo'lovchi tashiladi. Bu yuk va yo'lovchilarni tashishda 200 000 lokomotiv va millionlab vagonlar, 500 mln.ga yaqin avtomobillar, 80 000 kema, 10 000 dan ortiq samolyotlar qatnashadi.

Dunyodagi yuk va yo'lovchi tashish geografik jihatdan juda notekis taqsimlangan. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar transporti, texnika darajasining yuqoriligi va transport tarmoqlarining o'zaro yuksak aloqadorligi bilan ajralib turadi. Jahon transport tarmoqlari va jahondagi yuk va yo'lovchi tashishning 75-80 % shu mamlakatlarga to'g'ri keladi.

Rivojlangan mamlakatlarning transport tarmoqlari bilan ta'minlanganlik darajasi, ularning zichligi, aholining transportdan foydalanish darajasi ham eng yuqori. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida transport qishloq xo'jaligi kabi iqtisodiyotning qoloq tarmog'i edi va hozir bularda ham rivojlanish kuzatilmoqda.

Transport O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida ham muhim shart-sharoit va omillardan biri hisoblanadi. Bu sohada (aloqa bilan birga) YaIMning 9,8 foizi yaratilmoqda, iqtisodiyotda band bo'lganlarning 1,5 foizi mehnat qilmoqda. Mamlakat transport tarmog'i temir yo'l, avtomobil, havo, quvurlar va daryo suv yo'llaridan iborat. Transportning barcha turlari yordamida respublikada har yili xalq xo'jaligi uchun zarur bo'ladigan turli-tuman yuklar va yo'lovchilar tashiladi. O'zbekistonda yiliga barcha transport turlari vositasida 1209,0 mln tonnadan oshiq yuk va 5818,1 mln yo'lovchi tashilmoqda. Respublika temir yo'l tizimida taxminan 22,3 mln yo'lovchi va 68,4 mln t turli xil yuklar tashil etgan. (49-53) b

Transport tizimi – unga kiruvchi elementlar transport to'ri, transport turlari, transport tuguni, transport markazlari va transport vositalarining o'zaro uyg'unlashgan holda to'g'i hududiy tashki etilganligi, ularning mustaqil faoliyat ko'rsata olishi va boshqaruvchanligiga tizim deyiladi.

Yagona transport tizimi - Transportning barcha turlari majmuyi bo'lib, mahsulotlarni (yo'lovchilarni bir joydan ikkinchi joyga) ishlab chiqarish markazlaridan ist'mol joylariga yetkazib berishni ta'minlaydigan va transport tarmoqlarni va mintaqalarni o'zaro bog'laydigan yaxlit majmua deb qarash mumkin. O'zbekistonda transport sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yagona transport tizimini yaratishga qaratilgan. Bunga yangi avtomobil va temir yo'llarni qurilishi, turli transport vositalarini ishlab chiqarishdan tortib, aeroportlarni jahon talabiga moslashtirish, kopriklar bunyod etishgacha bolgan jarayonlarni kiritish mumkin.

Transport tuguni - bir necha transport turlari, aloqa yo'llari ozaro qo'shilgan va tarmoqlangan joy. Transport tugunlari xilma xil belgilari, transport turlari, transport asosiy shaxobchalar sxemasi, xalq xojaligidagi ahamiyati yuk aylanmasidagi asosiy yuk turlari, yuk va yo'lovchi aylanmasining katta kichikligiga qarab turlanadi. Ahamiyatiga ko'ra xalqaro, respublika, viloyat, mahalliy ahamiyatdagi transport tugunlariga ajratiladi.

Transport markazlari- Temir yo'l stantsiyalari, dengiz bandargohlari-daryo pristanlari tushiniladi. Bu yerda ortish tushirish ishlari amalga oshiriladi. Yo'lovchilar boshqa transport vositalari bilan almashinish imkoniyati mavjud.

Transport markazlari iqtisodiyotni barcha sohalarini bog'laydi. Masalan, temir yo'l stantsiyasi, dengiz bandargohlari, daryo pristanlari tushiniladi.

Transport magistrali - (lotincha – magistralis- bosh) – ko'plab yuk va yo'lovchi oqimlari tashiladigan va texnik jihatdan jahon talablariga javob beradigan transport yo'li.

Temir yo'l magistrali, odatda, ikki izli bo'lib, elektrovozlar yoki teplovozlar yordamida amalga oshiriladi. Transport magistrali eng muhim yo'nalishlarda xo'jalik aloqalarining markazlashuvidan vujudga keladi. Masalan, Transibir temir yo'l magistrali, Transevropaning temir yo'l magistrali, Transamerika magistrali va x..

Transport tori zichligi - aholi jon boshiga yoki hudud maydoniga to'g'ri keluvchi transport yo'llari uzunligi. Mazkur ko'rsatkich transportning ish natijalariga katta ta'sir krsatadi.

Xulosa ,taklif va tavsiyalar: O'zbekiston transport infratuzilmalarini ,xususan iqtisodiy rayon yo'lagi (koridor) lari shuningdek mintaqaviy transport integratsiyalarini yo'lga qo'yish .Yagona transport tizimlarida tansport tugunlarini joylashtirish maqsadga muofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Transport geografiyasi - geografiya.uz <http://geografiya.uz/uzb-iqt-ijt-geografiyasi/941-transport-geografiyasi.html>
2. Xidiraliyev K.E., Karshibayeva L.K. TRANSPORT, SANOAT VA QISHLOQ XO'JALIGI GEOGRAFIYASI Guliston – 2020 (49-53) betlar.
3. Isayev Akbarjon Abdulxamidovich TRANSPORT GEOGRAFIYASI (Uslubiy qo'llanma) Toshkent «MUMTOZ SO'Z» 2019